

SAYLOV QONUNCHILIGI VA SAYLOV JARAYONI ISHTIROKCHILARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

*Normuratov Jamshid Najim o'g'li,
JDPI Tarix fakulteti 1- kurs talabasi.*

Tel: +99872 226-13-57

Annotatsiya. Kuchli fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish har bir davlat rahbarining asosiy maqsadi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan bugungi davrda olib borilayotgan barcha ishlar jamiyatning huquqiy ongi va huquqiy manaviyatini yuksaltirish uchun xizmat qilmoqda. Saylov jarayonlarining shaffof va ochiq tarzda o'tkazilishi va aholining bunga bo'lgan munosabati qanchalik yuqori bo'lsa davlat va jamiyat ham shuncha tez rivojlanadi.

Kalit so'zlar: *konstitutsiya, saylov, partiya, referendum, majoritar saylov, proporsional saylov, aralash saylov, prinsip.*

Аннотация. Построение сильного гражданского общества и верховенства закона - главная цель каждого главы государства. В связи с этим вся проводимая сегодня работа служит повышению правосознания и правовой духовности общества. Чем прозрачнее и открытее избирательный процесс и чем выше отношение населения, тем быстрее будет развиваться государство и общество.

Ключевые слова: *конституция, выборы, партия, референдум, мажоритарные выборы, пропорциональные выборы, смешанные выборы, принцип.*

Annotation. Building a strong civil society and the rule of law is the main goal of every head of state. In this regard, all the work being done today serves to raise the legal awareness and legal spirituality of society. The more transparent and open the electoral process and the higher the attitude of the population, the faster the state and society will develop.

Key words: *constitution, election, party, referendum, majority election, proportional election, mixed election, principle.*

Bugungi davrda dunyo hamjamiyatini lol qoldira oladigan darajada islohotlarni amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi qariyb besh yildan buyon demokratik islohotlarni davom ettirib kelmoqda. Shu besh yil mobaynida xalqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'ldi. BMT, MDH va SHHT kabi tashkilotlarning faoliyatida faol ravishda qatnashib dunyo hamjamiyati bilan hamkorlikni kuchaytirdi. O'tgan davr ichida "Harakatlar strategiyasi", "Besh tashabbus" kabi dasturlar qabul qilindi hamda "O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi" tashkiloti tuzildi. Bu harakatlarning barchasi O'zbekistonni yanada rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgani hech birimizga sir emas, albatta. Butun dunyo davlatlari tomonidan katta qiziqish ostida o'tadigan

“Saylov” jarayoniga bugun bizning Vatanimizda ham tayyorgarlik ishlari jadal ravishda amalga oshirilmoqda. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining 21-moddasiga ko’ra, har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar orqali o’z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega. Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo’lishi lozim, bu iroda davriy va soxtalashtirilmagan, yalpi va teng saylov huquqidan, yashirin ovoz berish yo’li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta’minlaydigan boshqa shakllar vositasida o’tkaziladigan saylovlarda o’z aksini topishi lozim, deb belgilab qo’yilgan.

Avvalambor, “saylov” tushunchasiga ta’rif beradigan bo’lsak, shuni ta’kidlash joizki, qonunlarda “saylov” tushunchasiga deputatlar va boshqa mansabdor shaxslarni ovoz berish yo’li bilan saylash, deya ta’rif berilgan. Saylov – ovoz berish orqali davlat organlari, mahalliy o’zini o’zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish vositasi hisoblanadi. Fuqarolarning o’z saylov huquqini amalga oshirishi – ularning davlatni boshqarishda ishtirok etishining eng muhim shakllaridan biridir. Saylov jarayonining demokratik ruhda o’tishi bevosita davlatdagi siyosiy partiyalarning erkinligi, ularning jamiyat hayotidagi siyosiy obro’ va e’tiboriga bog’liq. Shu o’rinda siyosiy partiyalarning tarixiga to’xtatilib o’tsak. Siyosiy partiyalarning paydo bo’lishi va shakllanishi quyidagi 3 turga bo’linadi:

- birinchi bosqich - XV asr – XVIII asr o’z ichiga olgan. Bu davrda siyosiy partiyalarga nisbatan dushmanlik kayfiyati ustuvotlik qilar edi. “Siyosiy partiya” deganda o’z yetakchilarining xususiy manfaatlarini amalga oshirish faoliyatini maqsad qilib olgan nolegitm guruhlar tushunilgan.
- ikkinchi bosqich - XVIII asr oxiri – XIX asrning boshlariga hos bo’lib, bu davrda siyosiy partiyalar davlat tomonidan tan olinib boshlandi. Faylasuflar, siyosatshunoslar va siyosatchilar o’z faoliyatlarida partiyalarning jamiyat hamda davlat hayotida yashash huquqiga ega ekanligini e’tirof etdi, o’z faoliyatlarida ularga tayana boshladi.
- uchinchi bosqich - XIX asrning oxiri – XX asrni o’z ichiga olib, bu davr uchun siyosiy partiyalarning to’liq jamiyat tomonidan tan olinishi harakterlidir.

“Partiya” so’zi lotincha “part” so’zidan olingan bo’lib, “ish”, “qism” degan ma’nolarni bildiradi. Siyosiy partiya - fuqarolarning eng faol, mushtarak mafkura asosida bog’langan, davlat hokimiyatini qo’lga kiritish, uni saqlab qolish va amalga oshirishga intiluvchi qusmi, ixtiyoriy ittifoqi. Siyosiy partiyalar quyidagi asosiy belgilarga ega:

- ularning siyosiy hayotda faol ishtirok etishi;
- a’zolikning va ushbu partiya tayanadigan muayyan ijtimoiy qatlamning mavjudligi;
- siyosiy dastur va nizomga ega bo’lishi;
- partiyaga birlashgan kishilarning umumiy manfaatlariga va bir-biriga yaqin bo’lgan mushtarak mafkuraviy qarashlarga ega bo’lishi;
- bir yoki bir nechta siyosiy yetakchilarning mavjudligi.

Ayni paytda dunyodagi ilk siyosiy partiyalar yangi davrda rivojlanishning yuqori darajasiga erishgan, iqtisodiyoti to'liq sanoatlashgan davlatlarda paydo bo'lgan. Bu davlatlarga Angliya, Fransiya, AQSH va Yaponiya kiradi. Bu davlatlarda paydo bo'lgan partiyalar keyinchalik boshqa davlatlarda ham shunday partiyalar shakllanishiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Jumladan Angliyada "Vigilar" va "Torilar", AQSHda Jemis Medison rahbarligida "Respublikachilar" hamda Aleksandr Gamilton boshchiligida "Federalistlar" partiyalari tuzilgan. Shuningdek O'rta Osiyoning rivojlanishi uchun o'zining benihoya katta hissasini qo'shgan taraqqiyparvar jadidlar ham o'zlarining siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotlarini tuzganlar. Jumladan, "Yosh Buxoroliklar", "Yosh Xivaliklar", "Sho'roi Islomiya" hamda "Jadidlar partiyasi" kiradi. Bu kabi o'sha davr jamiyat hayotini o'zgartirish hamda Turkistoni ozodlik sari olib chiqib, mustabid tuzumdan qutulish uchun tashkil etilgan. Ushbu siyosiy tashkilotlar o'z oldilariga quyidagi maqsadlarni qo'ygan:

- ozod Turkistonda davlat tuzulishi va idorasi Jumhuriyat bo'lib, hokimiyat asosini demokratiya yo'li bilan saylangan millat majlisi yoki viloyat va shaharlar majlislari tashkil qiladi;
- markaziy hukumat a'zolari millat majlisining roziligiga ko'ra Jumhuriyat raisi tomonidan, viloyatdagi boshliqlar esa markaziy hukumat tarafidan tayinlanadi. Viloyat va shahar idora majlislarining raislari esa shu majlisning o'zida saylanib qo'yiladi;
- Turkistonda turk bo'lmagan ozchilik ham madaniy huquqlardan foydalanadi;
- Turkiston milliy hukumati Turkiston milliy askariga tayanadi;
- ichki osoyishtalikni ta'minlash uchun viloyat idoralari tomonidan joylarda politsiya ishlari tashkil qilinadi;
- mamlakatda vijdon erkinligi to'la ta'minlanadi. Diniy ibodat va urf-odatni erkin ravishda boshqarish davlat yo'li bilan ta'minlanadi;
- matbuot va nashriyat hamda shaxs erkinligi davlatning asosiy qonunlari asosida ta'min etiladi;
- adliya masalasida to'la mustaqillik va har kim uchun teng huquqlilik, dini va dunyoqarashi qanday bo'lishidan qat'iy nazar har bir kishi hozirgi zamon qonunlari himoyasi bilan kafolatlanadi. Xususan, Turkistonlik jadidchilik faoliyatining rahbarlaridan biri Ahmad Zaki Validiy partiya haqida o'z fikrlarini bildirib unga shunday ta'rif bergan: "Firqa (partiya) tashkiloti – sotsial demokrat, sotsial revolutsoiner, kadet, radikal, anarxist, monarxist kabi firqalar kiradi. Bunday tashkilotlar ijtimoiy hayotda insonlar o'rtasida ma'lum bir maslak tarqatish, mamalakatni idora qilish va hayot usulini shu maslak bo'yicha tuzish niyatida faoliyat ko'rsatadilar. Ma'lumdurki, hozir dunyoda xalq mutlaqo yaxshi uyushgandagina o'z maqsadiga erisha olur. Hatto madaniyatsiz xalq ham o'zining holiga muvofiq sur'atda yaxshi tashkilot qilsa, o'z maqsadiga yetadur. Ammo

tashkiloti bo'lmagan millat hech bir maqsadiga erisha olmaydur. Har bir shaxs o'zining ishlari uchun ikkinchi millat odamlari, faqat nufuz ahllari oldida sajda qilib yuruvga marbur bo'lib, va nihoyat, maqsadiga yeta olmasdan qaytadur. Hayhotki, tashkiloti yaxshi bo'lmagan millatga rahmoyat muhtoriyatgina emas, bunday millat o'lim va inqirozga mahkum bo'ladur".

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan to shu kunga qadar o'zining mustaqil faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. Bugungi davrda rivojlanishning yuqori cho'qqilarini zabt etishni ko'zlagan Vatanimiz taraqqiyotning ushbu bosqichiga osonlikcha yetib kelmadi. Bosib o'tilgan yo'l qanchalik og'ir bo'lmasin mana bugun o'z samarasini bermoqda. O'zbekistonda demokratik jamiyatga xos saylov tizimi barpo etilishida xalqaro huquq andozalari va talablariga, ilg'or chet el tajribasiga mos saylov qonunchiligi yaratilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Dastlab saylov tizimini yo'lga qo'yish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi referendumi to'g'risida" va "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida" 1991-yil 18-noyabrda qonun qabul qilindi. XX asr 90-yillarining boshida saylovlar, saylov o'tkazish to'g'risida bir qator qonunlar qabul qilindi. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuma va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi va "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir. Saylovlar Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tashkil etiladi. Markaziy saylov komissiyasini tuzish tartibi O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 12-moddasiga binoan amalga oshiriladi. Komissiya 1998-yilda e'tiboran mustaqil muvaqqat organ sifatida faoliyat boshlagan bo'lsa, 2014-yildan esa doimiy organ sifatida tashkil etildi. Markaziy saylov komissiyasi va uning a'zolari o'z faoliyatini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda amaolga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarda 18 yoshga to'lgan fuqarolarning saylash huquqiga ega ekanligi, O'zbekiston Prezidenti saylovi, Oliy Majlis saylovi, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari saylovi umumiy, teng, to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz yo'li bilan o'tkazilishi mustahkamlab qo'yilgan. Har bir saylovchi – bir ovozga ega. 35 yoshdan kam bo'lmagan fuqaro O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 25 yoshga to'lganlar Oliy Majlisga, 21 yoshga to'lganlar viloyat, tuman va shahar Kengashlariga deputat etib saylanishi huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan mamlakat Prezidenti saylovi, Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengisiga, viloyatlar, tumanlar, shaharlar davlat hokimiyatining vakillik organlariga saylov tegishlicha ularning konstitutsiyasiviy vakolat muddati tugaydigan yilda – oktabr oyi uchinchi o'n kunligining 1-yakshanbasida o'tkaziladi.

Ko'ppartiyaviylik – jamiyat hayotida ikki yoki undan ortiq partiyaning faoliyat yuritishidir. Bu holat demokratik yo'lga kirgan davlat va jamiyatlarga xos hisoblanib, jamiyat taraqqiyoti fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Jamiyatda siyosiy partiyalarning erkin faoliyat ko'rsatishi demokratik huquqiy davlat barpo etishning asosiy tayanchidir. Hozirgi davr jahondagi demokratiyaning asosiy mezonlaridan biri saylovlarning ko'ppartiyaviylik asosida o'tkazilishidir. O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida" gi qonunning 1-moddasiga muvofiq siyosiy partiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Siyosiy partiya – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir".

Mustaqillik davrida tashkil topgan ilk siyosiy partiya bu – O'zbekiston Xalq demokratik partiyasidir. Partiyaga 1991-yil 1-noyabrda asos solindi. Uning maqsadi ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini himoya qilishga qaratilgan. Mazkur partiya tashkil etilganidan hozirgi kunga qadar besh marotaba Prezident saylovlarida hamda parlament saylovlarida ishtirok etib, parlamentda o'z fraksiyasini tashkil etishga erishdi.

Mustaqillik yillarida tashkil topgan partiyalardan yana biri bu – O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidir. U 1995-yil 18-fevralda tuzilgan. Sotsial-demokratik partiyalarning asosiy maqsadi jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan. Partiya shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlardagi sotsial-demokratik yo'nalishdagi partiyalar bilan aloqalarni yo'lga qo'yishga va xalqaro sotsial-demokratik harakatlarda faol ishtirok etishga intilmoqda. O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi o'rta sinf va ehtiyojmand aholi tabaqasiga tayanadi. Ularning siyosiy va ijtimoiy irodalarini ifodalashga intiladi.

Mustaqillik yillarida tashkil topgan partiyalardan yana biri bu – O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasidir. Ushbu partiya 1995-yil 3-iyunda tuzilgan. O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasining asosiy maqsad-vazifasi milliy an'analarni va qadriyatlarni saqlashdan iborat.

O'zbekiston siyosiy tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib ulgurgan O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi 2003-yil 15-noyabrda tashkil topgan. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi umummilliy siyosiy tashkilot sifatida mulkdorlar qatlami, kichik beznis, fermerlik va dehqon xo'jaliklari vakillari, ishlab chiqarishning yuqori malakali mutaxassisleri va boshqaruv xodimlari, ishbiarmonlar manfaatini ifodalaydi va himoya qiladi.

2017-yil 22-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi e'lon qilindi. Mazkur Murojaatnomada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasidagi 15 ta deputatlik o'zni belgilab

qo'yilmasdan, Ekologik harakat boshqa partiyalar bilan teng raqobatga kirishgan holda, saylovlar orqali deputatlik o'rniga erishishi lozimligi taklif etildi.

O'zbekistonda eng yosh partiya hisoblangan – O'zbekiston Respublikasi Ekologik partiyasiga 2019-yil 8-yanvarda asos solindi. O'zbekiston Ekologik partiyasi – fuqarolarning hozirgi va kelgusi avlodi qulay atrof-muhit sharoitida yashash, aholi salomatligini yaxshilash, barcha tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish huquqlarini hamda ularga so'zsiz rioya etilishini ta'minlashga qaratilgan yangilanish jarayonlarini yanadaq chuqurlashtirishda jamiyatning bor kuch va salohiyatini safarbar qilishga intiladi.

O'zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning o'tgan yillar davomidagi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning rivojlanishi uchun huquqiy asos yaratilganini ko'ramiz. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida" gi, "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida" gi qonunlar hamda "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida" gi Konstitutsiyaviy qonuni shular jumlasidandir. Tabiiyki, siyosiy partiyalarning jamiyatda qanchalik mavqega ega ekanligini belgilovchi asosiy mezon – bu ularning davlat hokimiyati vakillik organlariga bo'ladigan saylovlarda qanday natijalarga erishganligi hisoblanadi. Jahon mamlakatlarida saylov tizimining majoritar, proporsional va aralash turlari qo'llaniladi. Jahon mamlakatlarining davlat qurilishi tajribasida majoritar saylov tizimi deganda vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniqlash tushuniladi. Unda qonun bilan belgilangan ko'p ovozni olgan nomzod muayyan okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Majoritar saylov tizimida nomzodga to'g'ridan to'g'ri ovoz berish imkoni bor. Proporsional saylov tizimida esa saylovchilar partiyalarga ovoz beradi. Yana ham aniqrog'i siyosiy partiya taqdim etgan nomzodlar ro'yxatiga ovoz beradi. Proporsional saylov tizimi ovoz berish natijalarini aniqlashning birmuncha murakkab tartibi bo'lib, bunda mandatlar o'z nomzodlarini vakillik organlariga qo'ygan siyosiy partiyalar va boshqa ommaviy harakatlar o'rtasida ular tomonidan olgan ovozlarning soniga mos ravishda taqsimlanadi. Proporsional saylov tizimida saylov okruglari tuzilib, ularda har bir partiya o'z vakillarining ro'yxatini ilgari suradi. Saylovchilar esa tegishli partiyalar va ommaviy harakatlar tomonidan ko'rsatilgan vakillarning ro'yxati uchun ovoz beradi. Saylovchilar bergan ovozlar miqdori deputatlik o'rinlarining soniga bo'linadi. Proporsional saylov tizimi Isroil, Vengriya, Avstriya, Daniya, Ispaniya, Polsha va boshqa mamlakatlarda qo'llaniladi. Aralash saylov tizimi o'zida ham majoritar, ham proporsional saylov tizimlari elementlarini o'zida mujassam etadi. Misol uchun, Germaniyada Bundestagga saylovlarda aralash tizim qo'llaniladi. Uning deputatlarining yarmi butun mamlakat hududini qamrab olgan bir mandatli saylov okruglarida nisbatan ko'pchilik ovozigacha asoslangan majoritar tizim bo'yicha, qolgan

yarmi esa ko'p mandatli saylov okruglari hisoblangan federatsiya subyektlarida siyosiy partiyalar tomonidan ilgari surilgan nomzodlar ro'yxati asosida proporsional tizim bo'yicha saylanadi. Aralash saylov tizimi Bolgariya, Gruziya, Litva, Italiya kabi mamlakatlarda qo'llanadi.

O'zbekiston Respublikasining saylov tizimi mamlakat Konstitutsiyasi va saylov to'g'risidagi tegishli qonunlar bilan tartibga solinadi. Ularga binoan, O'zbekistonda majoritar saylov tizimi qo'llanadi.

Saylov prinsiplari quyidagilardan iborat:

- umumiy – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlari umumiydir;
- teng - saylovda ishtirok etuvchi har bir fuqora bir ovozga ega;
- to'g'ridan to'g'ri - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari, mahalliy Kengashlar deputatlari fuqarolar tomonidan bevosita saylanadi;
- yashirin ovoz berish – Saylovda erkin va yashirin ovoz berilishi, saylovchilarning hoxish - irodasini nazorat qilishga yo'l qo'yilmasligi, saylovchilarning hoxish – irodasi ustidan har qanday tarzda nazorat qilish imkoniyati istisno etadigan tegishli sharoitlarni yaratish orqali yashirin ovoz berish prinsipi amaliyotda davlat tomonidan ta'minlanadi;
- ochiqlik va oshkoralik – Saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishni saylov komissiyalari ochiq va oshkora amalga oshiradi.

Mamlakatimizda eng so'ngi Prezident saylovi 2016-yil 4-dekabrda bo'lib o'tdi. Eng so'ngi parlament saylovi esa 2019-yil 29-dekabrda bo'lib o'tgan.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, Vatanimizning yana ham taraqqiy etishi va rivojlanishi uchun jamiyatning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish kerak. Viloyat va tuman markazlarida aholiga huquqiy xizmat ko'rsatishga qaratilgan tuzilmalar tashkil etilishi aholining huquqiy savodxonligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Aholimiz chiqarilayotgan qonunlar va qarorlarni qanchalik yaxshi bilsa, davlat hokimiyatini tashkil etilishiga shunchalik mas'uliyatli yondoshadi. Huquqiy maslahatxonalar tashkil etilishi aholining huquqiy bilimlarini rivoji uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi - 1948-yil 10-dekabr;
2. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi;
3. "Siyosiy partiyalar to'g'risida" gi qonun - 1998-yil 26- dekabr
4. Saylov kodeksi - 2021-yil 8-yanvar;
5. Siyosiy partiyalar tarixi va rivojlanishi - ma'ruza matni;
6. Saylov tizimi - ma'ruza matni;
7. Saylov prinsiplari - ma'ruza matni;
8. 11-sinf O'zbekiston tarixi darsligi - 2019.